



**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA RAQAMLI  
TEXNOLOGIYALARDAN VA SUN'iy INTELLEKTDAN FOYDALANISH  
TA'LIM SAMARADORLIGINING GAROVI**

**RUSTAMOV HAKIM SHARIPOVICH**

*Buxoro davlat universiteti,*

*amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti*

**RUHILLOYEVA LAYLO BURHONOVNA**

*Buxoro davlat universiteti,*

*amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi,*

*I bosqich magistranti*

**Xusanova Gulrux**

*Osiyo Xalqaro universiteti, umumtexnik fanlar kafedrasi,*

*I bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** *Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish ta'lif samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada raqamli platformalar, interaktiv ilovalar, til o'rghanishga mo'ljallangan sun'iy intellekt tizimlari orqali xorijiy tillarni o'rganishda qanday yondashuvlar natija berayotganligi tahlil qilinadi. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni raqamli vositalar yordamida kuchaytirish, ta'limi individuallashtirish, baholash tizimini avtomatlashtirish kabi jihatlar ham keng yoritiladi. Bu usullar xorijiy tillarni tezroq va samaraliroq o'zlashtirish imkonini beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Xorijiy tillar, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ta'lif samaradorligi, interaktiv o'qitish, onlayn ta'lif, individual yondashuv, avtomatik baholash, til o'rghanish.*

**Аннотация.** С сегодня использование цифровых технологий и искусственного интеллекта в обучении иностранным языкам становится одним из важных инструментов повышения эффективности образования. В



данной статье анализируются, какие подходы к изучению иностранных языков с помощью цифровых платформ, интерактивных приложений и систем искусственного интеллекта для изучения языков дают результаты. Также широко освещаются такие аспекты, как укрепление коммуникации между учениками и учителями с помощью цифровых инструментов, индивидуализация обучения и автоматизация системы оценивания. Эти методы позволяют быстрее и эффективнее осваивать иностранные языки.

**Ключевые слова:** Иностранные языки, цифровые технологии, искусственный интеллект, эффективность образования, интерактивное обучение, онлайн-образование, ИИ-системы, индивидуальный подход, автоматическая оценка, изучение языка.

**Annotation.** Today, the use of digital technologies and artificial intelligence in teaching foreign languages is becoming one of the important tools for increasing the effectiveness of education. This article analyzes what approaches to learning foreign languages through digital platforms, interactive applications, and artificial intelligence systems for language learning are yielding results. Aspects such as strengthening communication between students and teachers using digital tools, individualizing education, and automating the assessment system are also widely covered. These methods allow for faster and more effective mastery of foreign languages.

**Keywords:** Foreign languages, digital technologies, artificial intelligence, educational effectiveness, interactive teaching, online education, AI systems, individualized approach, automated assessment, language learning.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonining kuchayib borayotganligi xorijiy tillarni o‘rganish har bir shaxs uchun zaruratga aylanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan raqamli ta’lim muhitida xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan transformatsiyalar raqamli vositalar va sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv



jarayoniga faol integratsiyalashni talab qilmoqda[2]. An'anaviy o'qitish usullarining samarasi tobora pasayib borayotgan bir paytda, raqamli texnologiyalar ta'lif oluvchilarning qiziqishini oshirish, mustaqil o'rganishga yo'naltirish va til kompetensiyalarini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Interaktiv platformalar, mobil ilovalar, sun'iy intellektga asoslangan mashqlar xorijiy til o'rganish jarayonini intuitiv, individual va moslashuvchanligini oshirmoqda. Shu jihatdan, ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishning dolzarbligi, imkoniyatlari va metodik yondashuvlari keng yoritilishi e'tirof etilmoqda[3].

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash borasidagi ilmiy tadqiqotlar soni so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. Jahon tajribasida AQSh, Yevropa davlatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoyda raqamli ta'lif muhitlari samarali qo'llanilib, ta'lif samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynab kelmoqda. O'zbekiston ta'lif tizimida ham so'nggi yillarda raqamli transformatsiya yo'lga qo'yilib, interaktiv darsliklar, elektron platformalar, onlayn o'quv kurslar joriy etilmoqda. Ayni paytda xorijiy tillarni o'rganishda «Duolingo», «Memrise», «Busuu» kabi mobil ilovalar, shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlovchi «ChatGPT», «Google Translate» kabi tizimlar keng qo'llanilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ushbu vositalarning ta'limga ta'siri, o'quvchi motivatsiyasiga ijobiy ta'siri, individual yondashuvlarni kengaytirish imkoniyati tahlil qilingan. Biroq hali ham bu yo'nalish to'liq o'rganilmagan bo'lib, ayniqsa o'zbek tilida sun'iy intellekt vositalarining o'quv jarayonidagi roli bo'yicha tadqiqotlar yetarli emasligi bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqotda xorijiy til o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning metodologiyasi sifatida quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratildi:

- nazariy tahlil – mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba, ilg'or amaliyotlarni o'rganish;
- amaliy kuzatuv – o'quvchilarning xorijiy tilni o'rganishda qanday raqamli vositalardan foydalanyotgani, ularning natijadorligi;



- eksperiment – sun’iy intellekt asosidagi platformalardan foydalanish orqali o‘quvchilar bilim darajasidagi o‘zgarishni kuzatish;

- tahlil – eksperiment natijalarini statistik jihatdan baholash, samaradorlik darajasini aniqlash.

Ushbu metodologik yondashuvlar orqali sun’iy intellektning o‘quvchilarga qanday ta’sir qilayotgani, raqamli texnologiyalar yordamida til o‘rganishning afzallikkari chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida maktab va oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishda foydalanilayotgan raqamli vositalar va sun’iy intellekt tizimlari tahlil qilindi. O‘quvchilarga «Duolingo», «ChatGPT», «Quizziz» kabi platformalar orqali mashqlar o’tkazilib ularning natijaviyligi aniqlandi. Bundan tashqari “Turk tilini o’rgatuvchi” dasturiy vosita yaratilib xorijiy tillarni o‘qitishda yuqori samaradorlikka erishish amalga oshirilmoqda[1].

Tajriba natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt vositalaridan foydalangan o‘quvchilar grammatikani tezroq o‘zlashtirgan, talaffuzni yaxshilagan va matnlarni tahlil qilishda faol bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari ham kuchaygan. Bunday vositalarning joriy etilishi o‘qituvchilar uchun ham baholash jarayonini avtomatlashtirish, individual yondashuvlarni qo‘llash imkonini bermoqda[6].

**Xulosa.** Xorijiy tillarni o‘rganishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiruvchi kuchli omil hisoblanadi. Interaktiv va individual yondashuvlar o‘quvchilarning til o‘rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘qituvchilar ishini yengillashtiradi. Ushbu maqolada keltirilgan tajriba natijalari raqamli vositalarning ta’limdagi ahamiyatini yana bir bor isbotladi. Kelgusida bu texnologiyalarni yanada keng joriy qilish, ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish va pedagoglar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Назарова, Г. *Raqamli pedagogika asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2021.



2. Rustamova, M. “Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari”. *Filologiya va tillarni o‘qitish* jurnali, 2020.№2(47), 65–69.
3. Ким, С. *Artificial Intelligence in Language Education*. Seoul: K-EdTech Publishers. 2022
4. Jamshidov, B. “Sun’iy intellekt va ta’lim: yangi yondashuvlar”. *Ta’lim innovatsiyalari* jurnali, 2022. №4, 34–38.
5. Warschauer, M. & Kern, R. *Network-Based Language Teaching: Concepts and Practice*. Cambridge: Cambridge University Press. 2022.
6. Karimova, G. “Raqamlı texnologiyalar orqali til o‘rgatishning afzalliklari”. 2023. *O‘qituvchi va zamon* jurnali, №1(61), 22–26.
7. Duolingo Inc. *Duolingo Impact Report: Language Learning through AI*. Retrieved from. 2023.
8. Kukulska-Hulme, A. *Mobile Assisted Language Learning: A Selected Annotated Bibliography*. 2012. The Open University, UK.
9. Xalilova, N. “Xorijiy til ta’limida sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollari”. *Pedagogika va psixologiya* jurnali, 2022.№3(85), 15–19.
10. Ellis, R. *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford: Oxford University Press. 2003